

**TABIIY GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH TADQIQOTLARIDA G'ALLOROL
TUMANINING O'RNI**

Xoldorova G.M.

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy
bilim asoslari kafedrasi dotsenti, g.f.f.d., PhD*

Shodmonqulova V.I.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada G'allaorol tumani tabiiy sharoitini o'rganish asosida, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish chora tadbirlarni ishlab chiqishda tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari haqida fikrlar bayon etilgan. Tumanda tabiiy resurslaridan foydalanishga yangicha yondashuv zamon talabi ekanligi ta'kidlanadi

Kalit so'zlar

Jizzax viloyati, G'allaorol tumani o'simlik, tuproq, tuproq sho'rlanishi, suv havzalari, irrigatsiya inshootlar, suv omborlar, kollektor, monitoring, tahlil, landshaft

Abstract

This article, based on the study of the natural conditions of the Gallaorol district, presents ideas on the issues of natural geographical zoning in the rational use of natural resources and the development of nature protection measures. It is emphasized that a new approach to the use of natural resources in the district is the need of the hour.

Keywords

Jizzakh region, Galla-Arol district, vegetation, soil, soil salinity, water bodies, irrigation facilities, reservoirs, collector, monitoring, analysis, landscape

Аннотация

В данной статье, основанной на изучении природных условий Галлаорольского района, представлены идеи по вопросам естественного географического зонирования в рациональном использовании природных ресурсов и разработке природоохранных мер. Подчеркивается, что насущной необходимостью является новый подход к использованию природных ресурсов в районе.

Ключевые слова

Джизакская область, Галла-Арольский район, растительность, почва, засоленность почвы, водоемы, ирригационные сооружения, водохранилища, коллекторы, мониторинг, анализ, ландшафт

Mamlakatimizning ma'muriy tarkibini tashkil etgan viloyatlar turli tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari va darajalariga ega bo'lganidek, har bir viloyat ma'muriy tarkibiga kiruvchi tumanlarning ham tabiiy geoeologik sharoiti, agroiklimiy resurslari va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlar, bu imkoniyatlardan foydalanish xususiyatlariga ko'ra rivojlanish darajalari ham turlichadir. Har bir tuman o'z xususiyatlariga ko'ra viloyatda alohida o'ringa ega bo'ladi. Jizzax viloyati G'allaorol tumanining hududi tabiiy geografik tadqiqotlarda turli darajada o'rganilgan. Xususan tuman hududida joylashgan tog'lar Nurota, G'o'bduntog' va Qaroqchitog' tog'larida mavjud resurslardan foydalanish ishlari sobiq ittifoq davrida keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu hududlarda topilgan foydali qazilmalar, vol'fram (Qo'ytosh), oltin (Marjonbuloq) kabilarning konlari ishga tushirilgan va bu konlar mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. G'allaorol tumaniga tegishli hududlar Jizzax viloyatining tog' va tog' oldi hududlariga to'g'ri keladi. O'zbekiston va viloyatni tabiiy geografik tadqiq qilish jarayonida tatbiq qilingan tabiiy geografik rayonlashtirish ishlarida ushbu hududlar turli talqin qilingan bo'lsada, ushbu hududning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining umumiy geografik tavsifi viloyat tog'li hududlari darajasida mushtaraklikni kasb etadi. Tabiiy geografik tadqiqotlarda tabiiy geografik rayonlashtirish alohida ahamiyatga ega bo'lganligi uchun avvalo tumanning tabiiy geografik rayonlashtirish natijasida tutugan o'rni va uning xususiyatlari haqida so'z yuritish maqsadga muvofiqdir.

Tuman hududi tabiiy geografik rayonlashtirish nuqtai nazaridan O'zbekiston tog'oldi va tog' provintsiyachasining Turkiston-Nurota okrugiga tegishli Nurota tabiiy geografik rayonida joylashgan (P. Baratov 1996 y). Maktab darsliklarida tuman Zarafshon tabiiy o'lkasi deb ham yuritiladigan hududga tegishlidir. SHu tariqa Jizzax viloyatining tog'li va cho'l zonasida joylashgan tumanlari tabiiy geografik jihatdan ikkita tabiiy geografik rayonga ajraladi. Bunday ajratilish viloyatning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatamasada, vilyaot tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar taqsimotida katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatib turadi.

Jizzax viloyati huuddining tabiiy sharoitini geografik jihatdan to'liq tavsiflab bergan L. Alibekov va S. Nishonovlar viloyatni tabiiy geografik jihatdan rayonlashtirishni ham amalga oshirishgan. Bu ish orqali viloyat hududini yaxlit tabiiy geografik o'lka sifatida ko'rishimiz mumkin. Viloyat hududini tabiiy geografik rayonlashtirish ishi tumanlar tabiiy geografik sharoiti va resurslar salohiyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Jizzax viloyatining tabiiy – geografik rayonlashtirish sxemasi.

(L. A. Alibekov, S. A. Nishonov bo'yicha)

1-jadval

Tog'li hudud

O'lka	oblast	provi ntsiya	provints iyacha	Rayon
O'rta Osiyo	Farg'o naoldi	Zaraf shon-Oloy	1.Turkis ton tizmasining g'arbiy qismi	1. Zomin 2. CHumqortog' 3.SHimoliy Molguzar 4.Janubiy Molguzar 5. Sangzor tog' oralig'i botig'i
		Nuro ta- Qoratepa	II. Nurota	6.SHimoliy Nurota tog'lari-ning shimoliy yonbag'ri 7.SHimoliy Nurota tog'lari-ning janubiy yonbag'ri. 8.Qaroqchitog'- G'o'bdintog'. 9. G'allaorol tog' oralig'i sertepa tekisligi.
Tekislik hududi				
	Zona	provi ntsiya	provints iyacha	rayon
O'rta Osiyo tekisliklari	Janubi y (subtropik) cho'llar	III. Toshkent- Mirzacho'l .	Mirzach o'l	10. Jizzax 11. Mirzacho'l
		IV. Janubiy Qizilqum	Janubi- sharqiy Qizilqum	12. Forish 13.Qizilqumoldi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyat hududi 13 ta tabiiy geografik rayonga ajratilgan va bu "Rayon tashkil qiluvchi – zonal va azonal, paleogeografik shart-sharoitlar, tabiiy geografik jarayonlar kabi asosiy omillar tahlili va tabiiy birliklarni ajratishda genetik uslubning qo'llanilishi asosida amalga oshirilgan" (L. A. Alibekov va S. A. Nishonov "Prirodnye usloviya i resursy Djizakskoy oblasti" Tashkent. izd "Uzbekistan",1978, st 206). Manbada keltirilgan jadvalda har bir tabiiy geografik rayonning mutloq balandliklari va landshaft tiplari ham ko'rsatilgan. SHuningdek, har bir hududning to'liq tabiiy geografik tavsifi ham berilgan. Ta'kidlash lozimki, L. A. Alibekov va S. A. Nishonovlarning bu ishlari Jizzax viloyatining tabiiy sharoiti va resurslari haqida mufassal yozilgan yagona manbadir.

Ushbu manba asosida tabiiy geografik rayonlarning ma'muriy huuddga tegishli qismini ajratib olish va ularning tabiiy geografik sharoiti va resurslarini tadqiq qilish mumkin.

G'allaorol tumaniga tegishli bo'lgan tabiiy geografik rayonlar

Tog'li hudud tarkibidagi Nurota – Qoratepa provintsiyasi, Nurota provintsiyachasi:

- ☐ SHimoliy Nurota tog'larining janubiy yonbag'ri;
- ☐ Qaroqchitog'-G'o'bdintog';
- ☐ G'allaorol tog' oralig'i sertepa tekisligi;
- ☐ qisman Sangzor tog' oralig'i botig'i kabilar tashkil etadi.

Bu tabiiy geografik rayonlar tabiiy resurslar, jumladan rel'ef, suv resurslari, tuproq xususiyatlari jihatdan birmuncha farqlarga egadir. SHu bilan birga ushbu tumanlarning tabiiy geogarfik o'rni o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha omillarga asoslanadi. Asosan tabiiy sharoit va iqlimiy sharoitning bog'liqligi, landshaft xususiyatlaridagi mushtaraklik ushbu omillarni tashkil qiladi. Agar yuqorida ko'rsatilgan tabiiy geografik rayonlarga qisqacha landshaft tipologik ta'rif berilsa ushbu o'xshashliklar yaqqol ko'rinadi. Quyida shu ta'rifni manba asosida keltiriladi:

SHimoliy Nurota tog'larining janubiy yonbag'ri tabiiy geografik rayoni. 600-700 m dan 1000 m gacha bo'lgan mutlaq balandlik hududlarida past tog'lar nishab yonbag'rlari subtropik chala cho'l zonasi, 1000 m dan 1200 – 1600 m gacha bo'lgan mutlaq balandlik hududlarida o'rtacha tog'lar tik yonbag'irlari subtropik quruq dasht zonasi landshaftlari hosil bo'lgan. G'allaorol tumani hududiga tegishli bo'lgan bu hududda aholi punktlari 1000 mgacha mutlaq balandlik hududlariga qadar joylashgan.

Qaroqchitog'-G'o'bduntog' tabiiy geografik rayoni. 700-800 m dan 1200-1400 m gacha bo'lgan mutlaq balandlik hududlarida past tog'lar subtropik chala cho'l zonasi, 1400 m dan 1630 m gacha bo'lgan mutlaq balandlik hududlarida past tog'lar suvayirg'ichiyoni subtropik chala cho'l-quruq dasht zonasi landshaftlari hosil bo'lgan. Tabiiy geografik rayon G'allorol tumanining shimoli-g'arbiy qismini egallagan, aholi punktlari tog' yonbag'ri va etaklaridagi soylar bo'ylab joylashgan. Tumanning yaylov va lalmikor ekin maydonlari tabiiy rayonning asosiy hududlarini egallagan.

G'allaorol tog' oralig'i sertepa tekisligi tabiiy geografik rayoni. 550 mdan 900 m gacha bo'lgan mutlaq balandlik hududlarida joylashgan. G'allorol tumanining yirik aholi punktlari, ekin maydonlari va yaylovlari asosan ushbu hududda tashkil topgan.

Sangzor tog' oralig'i botig'i tabiiy geografik rayoni. Bu tabiiy geografik rayon 800 dan 1500 m gacha mutlaq balandlik hududlarini o'z ichiga oladi. Baxmal va G'allaorol tumanlarining ekin maydonlari, yaylovlari va aholi punktlarining asosiy qismi ushbu hududda joylashgan. Aholi chorvachilik va lalmikor donchilikdan tashqari bog'dorchilik, sabzavotchilik, uzumchilik bilan shug'ullanadi.

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Табиатни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан ратсионал фойдаланиш. – Ташкент.: “Ўқитувчи”, 1983, 272б.
2. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. -Ташкент.; Узбекистан 1978, 255 б.
3. Xoldorova G.M. G‘allaorol tumani geografiyasi. Jizzax - «Sangzor» - 2018
4. Бургутли О. Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. –Т.: “Фан”, 2008.
5. Ҳасанов И.А., Гуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси. – Т.: “O‘qituvchi”, 2007
6. Xoldorova G., Usmanov, M. (2020). Мирзачўл табиий географик райони ҳудудининг тупроқ қоплами мониторинг тизимини ташкил этишнинг амалий жиҳатлари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.
7. Xoldorova, G. (2021). Проблемы мониторинга окрижающей среды мирзачуля. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1455>
8. Холдорова Г., Эсонов С.Э. М Сангзор хавзаси геосистемаларида тупроқларининг мелиоратив ҳолатини картага туширишда тизимли таҳлилдан фойдаланиш “Journal of Natural Sciences” №2 2021 у. <http://natscience.jspi.uz>
9. O.Ruzikulova, N. Sabitova G. Kholdorova The role of GIS texnology in determining irrigateci geosistems E3S Web of Conferences 227,03004(2021) GI 2021 [ttps://do.org/10.1051/e3sconf/202122703004](https://do.org/10.1051/e3sconf/202122703004). 257 б
10. Mixliboyevna, X. G. (2024). Jizzax viloyati agroiqlimiy resurslarining xo‘jalikdagi ahamiyati. " russian" инновационные подходы в современной науке, 1(1).
11. Холдорова, Г. М., & Раимкулова, Ф. Ф. (2022). Жиззах вилояти табиий ресурслари ва улардан оқилона фойдаланиш муаммолари. Журнал естественных наук, 1(1 (6)), 270-276.